

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING ALOHIDA TOIFADAGI SHAXSLAR BILAN ISHLASH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Husenov Og‘abek Azizovich

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari tizimidagi profilaktika inspektorlarining alohida toifadagi shaxslar bilan ishlash faoliyati tahlil qilinadi. Muallif ushbu toifadagi shaxslarning huquqiy maqomi, ular bilan ishlashda duch kelinayotgan amaliy muammolar va mavjud qonunchilik asosida olib borilayotgan ishlarni tahlil qilgan. Shuningdek, mavjud tizimni takomillashtirish bo‘yicha aniq takliflar berilgan: modulli nazorat, reabilitatsiya dasturlari, elektron nazorat platformalari va mahalla bilan hamkorlikda ishlash mexanizmlari.

Kalit so‘zlar: Profilaktika inspektori, jinoyatchilik profilaktikasi, alohida toifadagi shaxslar, ichki ishlar organlari, nazoratdagi shaxslar, reabilitatsiya, ijtimoiy xavfli shaxslar, huquqbuzarliklar.

Kirish. Mamlakatimizda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolarning tinch hayotini ta‘minlash, ijtimoiy xavfsizlikni kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Ayniqsa, ushbu yo‘nalishda ichki ishlar organlari, xususan, profilaktika inspektorlarining faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, jinoyat sodir bo‘lishining oldini olish, huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash va ularni bartaraf etish aynan profilaktika xodimlarining kundalik xizmat vazifasi sanaladi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlariga muvofiq, ichki ishlar organlari faoliyati tubdan isloh qilinmoqda, zamonaviy va samarali profilaktika mexanizmlari shakllantirilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, profilaktika inspektorining alohida toifadagi shaxslar bilan ishlash faoliyati yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Alohida toifadagi shaxslar — bu muqaddam sudlanganlar, shartli jazoga tortilganlar, ichki ishlar organlarining nazoratida bo‘lgan yoki huquqbuzarlikka moyilligi aniqlangan fuqarolardir. Ular bilan tizimli, individual yondashuv asosida ishlash nafaqat jinoyatlarning oldini olishga, balki bu shaxslarning jamiyatga ijtimoiy moslashuvini ta‘minlashga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM.

1. Alohida toifadagi shaxslar tushunchasi va ular bilan ishlash zarurati O‘zbekiston Respublikasi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 15-moddasida belgilanishicha, jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish – ichki ishlar organlarining asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada eng muhim vazifalar esa mahalla profilaktika inspektorlariga yuklatilgan[3].

Alohida toifadagi shaxslar deganda quyidagilar tushuniladi:

muqaddam sudlangan va hozirda jazoni o‘tab bo‘lgan, ammo nazorat ostida bo‘lgan shaxslar;

shartli ravishda ozod qilingan yoki jazoni yengil shaklda o‘tayotgan fuqarolar;
ijtimoiy xavfli xatti-harakat sodir etgan va ichki ishlar organlari nazoratida bo‘lgan shaxslar;

probatsiya xizmati ro‘yxatida turuvchi shaxslar;

oilaviy zo‘ravonlik holatlarida qatnashgan va qayta huquqbuzarlik sodir etishi mumkin bo‘lgan fuqarolar.

2023-yilning o‘zida Ichki ishlar vazirligi ma‘lumotlariga ko‘ra, respublika bo‘yicha profilaktika nazoratida turgan shaxslar soni 62 mingdan oshgan. Ularning ichida 9 ming nafari ijtimoiy xavfli shaxs sifatida ro‘yxatga olingan. Bu holat ularning shunchaki ro‘yxatda emas, balki ular bilan tizimli, profilaktik ishlash zarurligini ko‘rsatadi.

2. Hozirgi holat: mavjud muammolar va yechim zarurati

Ayni paytda profilaktika inspektorlarining faoliyatida bir qancha tizimli muammolar kuzatilmoqda: Birinchidan, inspektorlarning ortiqcha yuklamasi samarali ishga to‘sqinlik qilmoqda. 2022-yilgi O‘zbekiston Respublikasi IIV hisobotiga ko‘ra, har bir profilaktika inspektoriga o‘rtacha 3–4 ta mahalla, 12 ming nafargacha aholi to‘g‘ri kelmoqda[4]. Bu esa alohida toifadagi shaxslar bilan individual ishlash imkonini sezilarli darajada cheklaydi.

Ikkinchidan, rehabilitatsiya va psixologik yordam tizimi sust ishlamoqda. Masalan, mahallalarda “Mehr daftari” tizimi mavjud bo‘lsa-da, ko‘plab xavfli toifadagi fuqarolar unga kiritilmagan. 2023-yilda ichki ishlar tizimiga qayta jinoyat sodir etgan 8200 nafar shaxs qayta ro‘yxatga olingan. Bu esa nazorat samaradorligining yetarli emasligini ko‘rsatadi[6].

Uchinchidan, ijtimoiy hamkorlik yetarli emas. Mahalla raislari, probatsiya xizmati, sog‘liqni saqlash va mehnat organlari bilan uzviy aloqa yo‘lga qo‘yilmagan. Oqibatda profilaktika faqat inspektorning zimmasiga tushib qolgan.

3. Qaror va farmoyishlar asosida takomillashtirish yo‘llari

So‘nggi yillarda mazkur yo‘nalishda muhim hujjatlar qabul qilindi. Jumladan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5151-sonli qarori (2021-yil 26-may) – “Ichki ishlar organlari profilaktika tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-avgustdagi PF–160-sonli Farmoni – “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar strategiyasi”ni tasdiqlagan[2].

IIVning 2022–2025-yillarga mo‘ljallangan yo‘l xaritasi – alohida toifadagi shaxslarni ijtimoiy hayotga qaytarish bo‘yicha tizimli yondashuvni ilgari suradi[5].

Ushbu hujjatlar asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Modulli nazorat tizimi – har bir alohida toifadagi shaxs uchun shaxsiy profil va rehabilitatsiya dasturi tuzish. Bunga psixolog, ijtimoiy xodim va profilaktika inspektori birgalikda mas‘ul bo‘ladi.

2. Mahalla bilan integratsiyalashgan tizim yaratish – alohida toifadagi shaxslar mahalla fuqarolar yig‘inidagi “Yoshlar daftari”, “Temir daftar”, “Ayollar daftari” orqali nazoratga olinadi. Ularga kasb-hunar o‘rganish, ish bilan ta‘minlash, ruhiy maslahatlar beriladi.

3. Elektron monitoring tizimini joriy etish – alohida toifadagi shaxslar bo‘yicha yagona onlayn baza (masalan, “E-profilaktika”) tashkil etilishi, barcha hududiy inspektorlar va tegishli organlar tomonidan umumiy foydalanish mumkin bo‘lishi lozim.

4. Malaka oshirish va treninglar – har yili profilaktika inspektorlari psixologik yondashuv, nizolarni hal etish, rehabilitatsiya bo‘yicha maxsus o‘quv kurslarida qatnashishi shart qilinadi. IIV Akademiyasida maxsus modul sifatida joriy etilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, profilaktika inspektorining alohida toifadagi shaxslar bilan ishlash faoliyati bugungi kunda jinoyatchilikning oldini olishda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Mazkur toifadagi shaxslar bilan samarali ishlash nafaqat ularning qayta huquqbuzarlik sodir etish ehtimolini kamaytiradi, balki ularni jamiyatga qayta ijtimoiylashtirish imkonini yaratadi. Amaldagi qonunchilik, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5151-sonli qarori va PF–160-sonli farmonlari ushbu sohada muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Biroq tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mavjud tizimda hali ham bir qator muammolar – inspektorlarning ortiqcha yuklamasi, ijtimoiy hamkorlikning sustligi, rehabilitatsiya jarayonlarining yetarli emasligi mavjud.

Shu sababli maqolada ilgari surilgan takliflar – modulli yondashuv asosidagi individual nazorat tizimi, elektron axborot platformasi, mahalla va fuqarolik jamiyati institutlari bilan integratsiyalashgan hamkorlik, shuningdek, profilaktika xodimlarining doimiy malaka oshirishi orqali bu sohadagi faoliyatni yangi bosqichga ko‘tarish mumkin. Profilaktika inspektori – bu faqat nazorat qiluvchi emas, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi, insoniylik va ishonchga tayanib ishlovchi muhim ijtimoiy figura sifatida faoliyat yuritishi zarur. Ana shunda profilaktika haqiqiy ma’noda jinoyatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

MANBALAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5151-sonli qarori, 26.05.2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–160-sonli farmoni, 04.08.2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi IIV rasmiy hisobotlari, 2022–2023-yillar.
5. IIV Akademiyasi: “Huquqbuzarliklar profilaktikasi asoslari” o‘quv qo‘llanmasi. Toshkent, 2021.
6. “Jinoyatchilikka qarshi kurashda jamiyat bilan hamkorlik”, seminar materiallari. 2023-yil.